XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-102-4-58-K/25 Qamashi tumani

Qamashi tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 - va 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01-20-10/01-38/3431-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 -, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Qamashi tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **153 426,318 mln.so‘m** va xarajatlari esa **153 426,318mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **0,0 mln.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 137 780,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Qamashi tumanining 2026-yil uchun rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yillarga mo‘ljallari **1-ilova**ga;

Qamashi tumanining mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

Qamashi tumanining mahalliy budjetidan 2026-yilda mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

2026-yilda umumdavlat soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari **4-ilova**ga;

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat budjeti bilan tumanlar va shaharlar budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga” Qashqadaryo viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Qamashi tumani mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2026-yil uchun Qamashi tumani mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

6. Qamashi tumanining mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun**2 026,542 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Qamashi tumanining mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi mahalliy budjetida tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bunda tuman mahalliy budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish tumanning mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

7. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga;**

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga;**

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar **9-ilovaga;**

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga;**

2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **11-ilovaga;**

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **12-ilovaga;**

2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **13-ilovaga;**

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdorlari **14-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 7 va 8-ilovalariga asosan qo‘llaniladigan koeffitsientlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi:

respublika budjetidan Qashqadaryo viloyatining viloyat budjetiga o‘tkazib beriladigan daromad prognozining oshirib bajarilgan qismidan 50 foizini 2025-yil 1-dekabr holatiga statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisining jami viloyat aholisi ulushiga muvofiq tuman (shahar)lar budjetlariga belgilangan muddatlarda o‘tkazish;

dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan tushgan soliqlar bo‘yicha viloyat budjetiga o‘tkazilgan mablag‘larni ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzulmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar budjetlariga to‘liq o‘tkazilishini ta’minlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Muminov), tuman soliq inspeksiyasi (Ochilov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Tuman hokimligi, mahalliy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tuman mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (Ochilov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini

ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Qamashi tumani bo‘limi (Alamov), tuman soliq inspeksiyasi (Ochilov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (Rustamov) Davlat mulkidan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (Toshev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

14. Tuman hokimligi hamda tuman soliq inspeksiyasi (Ochilov), tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (Eshqobilov) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Rahimov), tuman adliya bo‘limi (Zulfiqorov) tumanda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimi O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 - va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatishi tavsiya etilsin.

17. Tuman mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

18. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Sarikov) tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (Ismonov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

20. Tumani hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (Rasulov), tuman soliq inspeksiyasi (Ochilov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Pardayev) bilan birgalikda hamda tumandagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Qamashi tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-5-020-4-58-K/24-son qarori 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Toshturdiyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi

o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Muminov) zimmasiga yuklatilsin..

Kengash raisi **USMONOV XURSHID ABDUKARIMOVICH**

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanining 2026-yil uchun rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2027-yil	2028-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m			
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda			
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda			
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	105,8	106,1	106,3
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,3	104,8	105,2
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	104,5	104,9	105,1

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qamashi tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	Qamashi tumani (ming so‘mda)
	JAMI	**153 426 318**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 800 000
2	Foyda solig‘i	3 360 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 699 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	49 406 812
5	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	2 600 000
	Aksiz solig‘i jami	19 500 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	19 500 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 857 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12 578 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 899 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 798 506
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik	2 000 000

	uchun soliq	
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 336 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	6 678 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	2 671 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	3 505 000
15	Yig‘imlar	1 890 000
16	Jarimalar	5 950 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	247 000

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qamashi tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Qamashi tumani (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, jami		**153 426 318**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	45 558 949
	shundan:	
	"Mening maktabim"	6 180 200
2	Madaniyat bo‘limi	7 538 951
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	7 178 204
4	Sport bo‘limi	6 080 242
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 570 020
7	Irrigatsiya bo‘limi	2 693 340
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	118 778
10	Hokimiyat	56 909 304
	shundan:	0
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 919 576

	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 671 880
	Madaniyat bo‘limi	172 169
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	295 016
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	164 103
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	409 213
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	770 942
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	280 086
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	28 474 164
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	3 100 149
	Zahira jamg‘armasi	2 026 542
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 035 378
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	58 666
	Axborot-kutubxona markazlari	976 712
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 743 152
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Qamashi tumani	0	70	100	30	0	69	100	31	100	100	0	0	0	70	100	30	0	0	100	100	0	0	100	100	0	100	100	0

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
1	Qamashi tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	0	100	100	100	0	50	50	50	50	42	58

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111600 daromad kodiga tushadigan mablag‘lar to‘liq taman va shaharlar budjetlariga yo‘naltiriladi;

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha 3141103 daromad kodiga tushgan mablag‘larning *(20 foizi)* to‘liq viloyat budjetiga yo‘naltiriladi;

4. Jarimalar (3430103), davlat boji (3422103) va yig‘imlar (3422203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tuman va shag‘arlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi;

5. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilan me’yorlarga asosan taqsimlanadi.
6. O‘zbekiston Respublikasning 25.12.2025 yildaga “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonunning 12-moddasi, 4-bandiga binoan viloyat budjetiga qoladigan qismi, qo‘shilgan qiymat solig‘i *(20 foiz)* va alkogol mahsulotlari aksiz solig‘i *(30 foiz)*dan tushgan tushumlar 100 foiz miqdorida hisobga olingan.

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Qamashi tumani mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming.so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Qamashi tumani	153 426 318	153 426 318

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yil uchun Qamashi tumani mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1.	Qamashi tumani	1 137 780,0

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	MFY nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming.so‘m)
1	Dovud MFY	0,8	2 951,04
2	Yortepa MFY	0,8	2 951,04
3	Oynakul MFY	0,8	2 951,04
4	Qishliq MFY	0,8	2 951,04
5	Elobod MFY	0,8	2 951,04
6	Yuksalish MFY	0,8	2 951,04
7	Changak MFY	0,8	2 951,04
8	Bog‘obod MFY	0,8	2 951,04
9	Qizilqishloq MFY	0,8	2 951,04
10	O'rtadara MFY	0,8	2 951,04
11	Ko'kbuloq MFY	0,8	2 951,04
12	Chuqurqishloq MFY	0,8	2 951,04
13	Qung‘irot MFY	0,8	2 951,04

14	Boburtepa MFY	0,9	3 319,92
15	Kattao'ra MFY	0,9	3 319,92
16	Balandchayla MFY	0,9	3 319,92
17	Qo‘shkapa MFY	0,9	3 319,92
18	Sarbozor MFY	0,9	3 319,92
19	Paxtaobod MFY	0,9	3 319,92
20	Qovchin MFY	0,9	3 319,92
21	Qorabog‘ MFY	0,9	3 319,92
22	Boybo'ri MFY	0,9	3 319,92
23	Berdoli MFY	0,9	3 319,92
24	Kaptarxona MFY	0,9	3 319,92
25	Uzun MFY	0,9	3 319,92
26	Sohibkor MFY	0,9	3 319,92
27	Azlartepa MFY	0,9	3 319,92
28	Nurli yo‘l MFY	0,9	3 319,92
29	Badaxshon MFY	0,9	3 319,92
30	Loyqasoy MFY	0,9	3 319,92
31	Bunyodkor MFY	0,9	3 319,92
32	Oqguzar MFY	0,9	3 319,92
33	Qiziltepa MFY	0,9	3 319,92
34	Mayda MFY	0,9	3 319,92
35	Quyi Yangi MFY	0,9	3 319,92
36	Qoratepa MFY	0,9	3 319,92
37	Olmazor MFY	0,9	3 319,92

38	Qamay MFY	0,9	3 319,92
39	G‘ishtli MFY	0,9	3 319,92
40	Guliston MFY	0,9	3 319,92
41	Istiqbol MFY	1	3 688,80
42	Odokjonbo'z MFY	1	3 688,80
43	Rabod MFY	1	3 688,80
44	Ibn Sino MFY	1	3 688,80
45	Chim MFY	1	3 688,80
46	Jonbo'z MFY	1	3 688,80
47	To'qboy MFY	1	3 688,80
48	Mang'it MFY	1,1	4 057,68
49	Gulshan MFY	1,12	4 131,46
50	Tinchlik MFY	1,12	4 131,46
51	Samarqand MFY	1,1	4 057,68
52	Obod MFY	1,1	4 057,68
53	Do‘stlik MFY	1,1	4 057,68
54	Qorasuv MFY	1,12	4 131,46
55	Zafar MFY	1,2	4 426,56
56	O‘zbekiston MFY	1,2	4 426,56
57	Navoiy MFY	1,2	4 426,56

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	MFY nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘m)
1	Dovud MFY	0,9	278,23
2	Yortepa MFY	0,9	278,23
3	Oynakul MFY	0,9	278,23
4	Qishliq MFY	0,9	278,23
5	Elobod MFY	0,9	278,23
6	Yuksalish MFY	0,9	278,23
7	Changak MFY	0,93	287,50
8	Bog‘obod MFY	0,93	287,50
9	Qizilqishloq MFY	0,93	287,50
10	O'rtadara MFY	0,93	287,50
11	Ko'kbuloq MFY	0,93	287,50
12	Chuqurqishloq MFY	0,93	287,50
13	Qung‘irot MFY	1	309,14

14	Boburtepa MFY	0,9	278,23
15	Kattao'ra MFY	0,93	287,50
16	Balandchayla MFY	1	309,14
17	Qo‘shkapa MFY	1	309,14
18	Sarbozor MFY	1	309,14
19	Paxtaobod MFY	1	309,14
20	Qovchin MFY	1	309,14
21	Qorabog‘ MFY	1	309,14
22	Boybo'ri MFY	1	309,14
23	Berdoli MFY	1	309,14
24	Kaptarxona MFY	1	309,14
25	Uzun MFY	1	309,14
26	Sohibkor MFY	1	309,14
27	Azlartepa MFY	1	309,14
28	Nurli yo‘l MFY	1	309,14
29	Badaxshon MFY	1	309,14
30	Loyqasoy MFY	1	309,14
31	Bunyodkor MFY	1	309,14
32	Oqguzar MFY	1	309,14
33	Qiziltepa MFY	1	309,14
34	Mayda MFY	1	309,14
35	Quyi Yangi MFY	1	309,14
36	Qoratepa MFY	1	309,14
37	Olmazor MFY	1	309,14

38	Qamay MFY	1	309,14
39	G‘ishtli MFY	1	309,14
40	Guliston MFY	1,1	340,05
41	Istiqbol MFY	1	309,14
42	Odoqjonbo'z MFY	1	309,14
43	Rabod MFY	1	309,14
44	Ibn Sino MFY	1,1	340,05
45	Chim MFY	1,1	340,05
46	Jonbo'z MFY	1,1	340,05
47	To'qboy MFY	1,1	340,05
48	Mang'it MFY	1	309,14
49	Gulshan MFY	1	309,14
50	Tinchlik MFY	1	309,14
51	Samarqand MFY	1,1	340,05
52	Obod MFY	1,2	370,97
53	Do‘stlik MFY	1,2	370,97
54	Qorasuv MFY	1,2	370,97
55	Zafar MFY	1,2	370,97
56	O‘zbekiston MFY	1,2	370,97
57	Navoiy MFY	1,2	370,97

Izoh: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega*

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	**Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo‘llaniladigan** (Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli subyektlardan tashqari)	
		Koeffitsiyent miqdori	**Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so‘mda)**
1	Qamashi tumani	0,90	1 251 000

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
10-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

T/r.	Hudud nomi	Bir oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsiyent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)
1	Qamashi tumani	1,20	7 080	1,30	15 340

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
11-ilova

2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Hudud nomi	Soliq kodeksi bo‘yicha 2026-yil uchun belgilangan stavka %	Koeffitsient miqdori	Koeffitsient qo‘llanilganidan keyingi soliq stavkasi %
1	Qamashi tumani	0,95	1,00	0,95

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
12-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Hudud nomi	2026-yil koeffitsient miqdori				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Qamashi tumani	1,15	1,15	1,15	1,15	1

Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
13-ilova

Qamashi tuman bo‘yicha 2026-yil uchun tasdiqlanishi lozim bo‘lgan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi

№	Tuman nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub		Marmar soʻm/m.kub		Granitlar soʻm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub		Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub	
		Koeffitsiyent	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*

1	Qamashi tumani	1,20	7 909	1,20	12 840	1,20	25 680	1,20	38 520	1,20	20 479,2	1,30	6 425,9	1,30	6 955,0

Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-102-4-58-K/25 -son qaroriga
14-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdorlari

Tuman nomi	Faoliyat turlari kesimida		
	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklami hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo' llaniladigan koeffitsiyent miqdori
Qamashi tumani	1,20	1,4	1,2